International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 2)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

O‘ZBEKISTONNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY, HUQUQIY ASOSLARI



Xudayarov Rashid
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali katta o‘qituvchisi
Sattarova Madina
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunga kelib jahon iqtisodiyotida ikki tendensiya amal qilmoqda. Bir tomondan, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, xalqaro savdoning erkinlashuvi, kommunikatsiya va axborot zamonaviy tizimi, texnik jihatdan jahon andozalari va me’yorlarining yaratilishi natijasida jahon xo‘jaligining yaxlitligi, uning globallashuvi kuchaymoqda. Ayniqsa, bu jarayon transmilliy korporatsiyalarning faoliyatlari orqali aniq namoyon bo‘lmoqda. Bu kabi o‘zgarishlar mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini o‘rganish zaruriyatini oshirmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy asoslari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, iqtisodiyot faoliyat, ehtiyoj, islohot.

Iqtisodiy faoliyatda O‘zbekistonning ham o‘rni beqiyos. Yurtimizda amalga oshirilayotgan savdo va ayirboshlash sohalarida bir qancha yangilik bo‘lmoqda. Ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tartibga solish va huquqiy jihatdan himoyalash esa davlatning asosiy vazifasidir. Bugungi kunda mamlakatimizdagi islohotlar, eng avvalo, dunyoda, shu jumladan, jahon iqtisodiyoti konyunkturasida yuz berayotgan turli o‘zgarishlarga mos holda amalga oshirilmoqda. Tanlab olgan yo‘limiz global inqirozdan keyin jahon iqtisodiyoti rivojlanish sur’atlari pasaygan bir sharoitda o‘zining barqarorligi va hayotiyligini ko‘rsatayapti. Mamlakatimizda keyingi yillarda tashqi siyosat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirishga va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o‘zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda. So‘nggi yillarda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekiston hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va boshqa sohalarida muhim va dolzarb ulkan islohot hamda o‘zgarishlar izchil amalga oshirilmoqda. 2020-yilda pandemiya oqibatida yuzaga kelgan xalqaro miqyosdagi iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, ayrim mintaqalardagi umumiy ahvol va davlatlararo munosabatlarning keskinlashishi tashqi siyosatimizdan yangi maqsad va yondashuvlarni talab etmoqda.

Mamlakagimizda iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayoni tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy boshqarish strategiyasining o‘ziga xosliklarini hamda ham mintaqaviy miqyosda, ham alohida mamlakatlar darajasida savdo-iqtisodiy hamkorligining tegishli ustuvorliklarini belgilab berdi.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasini ishlab chiqishda va takomillashtirishda jahonning boshqa mintaqalari mamlakatlari bilan ham savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ham muhim ahamiyat berish kerak. Masalan, Osiyo mamlakatlari asta-sekin jahon iqtisodiyotida yetakchi mavqeini egallamoqdalar, dunyoning katta transport-kommunikasiya imkoniyatlariga ega bo‘lgan muhim savdo, moliya markazlariga aylanmoqdalar. O‘zbekistonning eksport salohiyatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish nuqtai nazaridan e’tibor to‘la qayta ishlangan mahsulotni sotishga qaratilishi kerak. Bu sharoitlarda O‘zbekistonning huquqiy strategiyasi eng avvalo xalqaro mehnat taqsimoti asosida O‘zbekistonning iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan tabaqalashtirilgan holda, har bir davlat uchun alohida ishlab chiqilishi kerak.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari hisoblanadilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning obyektlari oldi-sotdi yoki ayirboshlash obyekti bo‘lgan tovarlar, ishlar (xizmatlar), har qanday mol-mulkka, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlar, valyuta qimmatliklariga, elektr, issiqlik energiyasi va boshqa turdagi energiyaga, transport vositalariga, intellektual mulk obyektlariga nisbatan, tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanilishi qonunchilik bilan taqiqlanganlarini istisno etganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirilishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan subyektlar bu jarayonda teng huquqlidirlar va ular quyidagicha:

-qonunchilik doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashish shakllarini mustaqil belgilash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun o‘z xohishiga ko‘ra boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida belgilangan tartibda jalb qilish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat natijalariga, shu jumladan milliy va chet el valyutasidagi daromadga qonunchilikka muvofiq mustaqil ravishda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish.

Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda quyidagi hujjatlar qabul qilindi:

- O‘zbekiston Respeblikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3303-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi “Investisiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5643-sonli farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4135-sonli qarori va h.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish, tartibga solish va muvofiqlashtirish bo‘yicha eng muhim organlardan biri Prezident devoni hisoblanadi. Devon Prezident tomonidan shakllantiriladi, unga bo‘ysunadi va

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

bevosita unga hisobdor. Devon o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi PQ-4297-sonli “Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma’muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.
2. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. 2017
3. Tursunova M.R., Abduqodirova N.A. “Indicators of foreign economic activity in Uzbekistan”, “9th INTERNATIONAL CONFERENCE ON CULTURE AND CIVILIZATION” full texts book, march 15-16, 2021. p. 661-666, Tashkent Chemical Technological Institute.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024